



DAVLAT XARIDLARI SOHASIDA RAQOBAT MUHITINI YARATISH: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Saydaqulov Ravshan

*O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi
"Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasi
ORCID: 0009-0001-8319-8766
rsaydakulov@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat xaridlari tizimida raqobat muhitini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. O'zbekistonda qabul qilingan huquqiy bazalar, elektron xarid platfomalari va raqamlashtirish jarayonlari orqali tender jarayonlarini oshkora va samarali qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, "yopiq xaridlar", afillangan kompaniyalar, ma'lumotlar ochiqligi yetishmasligi kabi muammolar ham atroflicha tahlil qilinadi. Jahon tajribasiga asoslangan holda blokcheyn va avtomatlashtirilgan baholash texnologiyalarini joriy etish, jamoatchilik monitoringini kuchaytirish bo'yicha aniq takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari, raqobat, elektron tender, blokcheyn, shaffoflik, korrupsiya, jamoatchilik monitoringi.

ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ В СФЕРЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК: ВОЗМОЖНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ

Сайдакулов Равшан

*Государственное унитарное предприятие
«Центр комплексной экспертизы проектов и импортных контрактов»
при Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан*

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы формирования конкурентной среды в системе государственных закупок. Анализируются правовые основы, внедрение электронных платформ и цифровизация процессов в Узбекистане, направленные на повышение прозрачности и эффективности тендерных процедур. Особое внимание уделено существующим проблемам: закрытым закупкам, аффилированным компаниям и ограниченной доступности данных. На основе международного опыта предложены практические меры: внедрение технологий блокчейн, автоматической оценки и развитие общественного контроля.

Ключевые слова: государственные закупки, конкуренция, электронные тендеры, блокчейн, прозрачность, коррупция, общественный мониторинг.

CREATING A COMPETITIVE ENVIRONMENT IN THE FIELD OF PUBLIC PROCUREMENT: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES

Saydakulov Ravshan

State Unitary Enterprise "Center for Comprehensive Expertise of Projects and Import Contracts" under the Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the issues of establishing a competitive environment in the public procurement system. It examines Uzbekistan's legal framework, the role of electronic procurement platforms, and digitalization processes aimed at improving transparency and efficiency in tender procedures. The paper also explores existing challenges, such as non-transparent procurement, affiliated companies, and lack of open data. Based on international experience, the study proposes practical recommendations, including the use of blockchain, automated evaluation technologies, and the strengthening of public monitoring.

Keywords: public procurement, competition, e-tendering, blockchain, transparency, corruption, public oversight.

Kirish.

Davlat xaridlari sohasi har bir mamlakat iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega bo'lib, budget mablag'larining samarali va maqsadli sarflanishida muhim vosita hisoblanadi. Bu orqali davlat tashkilotlari o'z ehtiyojlarini qondirish bilan birga, mahalliy ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar uchun barqaror bozor yaratadi. Shu bilan birga, davlat xaridlari iqtisodiyotda raqobat muhitini rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va umumiy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda katta o'rin tutadi. Agar ushbu jarayon ochiq va shaffof tashkil etilsa, davlat resurslarining oqilona sarflanishi, korrupsiyaning kamayishi va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchi mustahkamlanishi ta'minlanadi.

Raqobat – har qanday bozorning tabiiy va zaruriy omilidir. Davlat xaridlarida sog'lom raqobat muhitini ta'minlash orqali davlat xizmatlari sifatini oshirish, sifatli tovar va xizmatlarni eng maqbul narxda xarid qilish, innovatsiyalarni joriy etish hamda tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish mumkin. Shunga qaramay, amaliy jarayonda raqobatni cheklovchi omillar – shaffof bo'lmagan va yopiq xaridlar, afillangan yetkazib beruvchilar/ishlab chiqaruvchilar kabi masalalar mavjudligini kuzatish mumkin.

Adabiyotlar sharhi.

Davlat xaridlari sohasidagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xarid jarayonlari davlat budgeti mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni (O'zbekiston Respublikasi O'RQ-684-son, 23.04.2021) ushbu tizimni institutsional jihatdan tartibga soldi. Mazkur qonun tender, auksion va kichik qiymatli xaridlar kabi raqobatni keng qamrab oluvchi mexanizmlarni huquqiy asos sifatida mustahkamlab berdi. Qonunning ilmiy tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlari orqali sog'lom raqobatni ta'minlash korrupsiyani kamaytirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va tadbirkorlik subyektlari uchun barqaror bozor sharoitlarini yaratishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

O'zbekistonda davlat xaridlari tizimi bo'yicha milliy ilmiy manbalar ham qimmatli tahliliy asoslarni taqdim etmoqda. Jalolov (2022) o'z tadqiqotida xaridlarda shaffoflikni oshirish nazariy konsepsiyalarini ishlab chiqib, ma'lumotlarning ochiqligi korrupsion risklarni kamaytirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ilmiy dalillar bilan asoslaydi. Hamrayev (2021) esa davlat budgeti samaradorligini o'rgangan holda, xarid tizimidagi raqobat va ochiqlik darajasi budget mablag'larining oqilona taqsimlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Bu yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, milliy ilmiy izlanishlarda davlat xaridlari faqat iqtisodiy

jarayon sifatida emas, balki samaradorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlovchi institut sifatida ko'riladi.

Xalqaro tajriba davlat xaridlarini raqamlashtirish va ochiq ma'lumotlar bazasini yaratishning ijobiy samaralarini isbotlab bermoqda. Estoniya va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, elektron xarid platformalaridan foydalanish inson omilini kamaytirib, korrupsiya xavfini pasaytiradi va xarid jarayonida ishtirokchilar sonini oshiradi. Jahon bankining 2024-yilgi hisobotida esa jamoatchilik monitoringi tatbiq etilgan xaridlarning samaradorligi 15-30 foizgacha yuqori bo'lgani ilmiy dalillar asosida ko'rsatib o'tilgan (Hovhannisyan and Hovhannisyan, 2025). Bu esa xalqaro tajribani O'zbekiston amaliyotiga tatbiq etishning dolzarbligini asoslab beradi.

Umumlashtirib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda davlat xaridlari sohasida islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ilmiy manbalar raqobat muhitini kuchaytirish, shaffoflikni ta'minlash, blokcheyn va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish hamda jamoatchilik monitoringini kengaytirish zarurligini ilmiy asoslarda ta'kidlamokda. Milliy va xalqaro ilmiy izlanishlar uyg'unligi ushbu sohada samaradorlikni ta'minlashning nazariy hamda amaliy yo'nalishlarini belgilab bermoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada quyidagi tahliliy usullar qo'llanildi:

huquqiy tahlil – O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuni va unga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi;

jahon amaliyotini qiyosiy tahlil qilish – Estoniya, Janubiy Koreya, Ukraina kabi davlatlarning elektron xaridlar amaliyoti o'rganildi;

amaliy misollar tahlili – Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va OAV ma'lumotlari asosida mahalliy tender jarayonlarida uchrayotgan muammolar tahlil qilindi;

tadbirkorlik muhiti tahlili – raqobat muhitining tadbirkorlar faolligiga ta'siri xaqida tahlillar olib borildi;

manbalar tahlili – Xalqaro moliya institutlari hisobotlari asosida xalqaro tavsiyalar va ilmiy fikrlar o'rganildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda davlat xaridlari sohasida raqobatni yuqori darajada ta'minlanishiga qaratilgan mustahkam huquqiy va raqamli axborot bazalari yaratilmoqda. Elektron savdo maydonlari, tenderlar, auksionlar va kichik qiymatli xaridlarning barchasi raqobatli usullar sifatida qonunchilikda belgilab qo'yilgan (Qonun, 2021). Monitoring va nazorat vazifalarida davlat idoralari (Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi va boshqalar) shaffoflikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi belgilangan (Қонун, n.d.). Ilmiy tahlillarga ko'ra, raqobat darajasini doimiy tahlil, takomillashtirish va nazorat bilan qo'llab-quvvatlanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tartib-taomillarini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat – O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.04.2021 y., 03/21/684/0367-son) 2021-yil 22-aprelda qabul qilingan. Qonun elektron do'kon, kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili, boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash, tender, ikki bosqichli davlat xaridlari kabi raqobatni qamrab oluvchi mexanizmlarni joriy etishga qaratilgan. Shuningdek, milliy qonunchilikda barcha davlat xarid jarayonlari haqidagi ma'lumotlarni maxsus elektron platformada oshkora joylashtirish, tenderlarning shaffofligi va jamoatchilik nazoratini ta'minlash kabi prinsiplar ustuvor sanaladi (Qonun, 2021).

Elektron xarid platformalari, xususan O'zbekistonda davlat xaridlar sohasida joriy etilgan maxsus axborot portallari va raqamli tizimlar xarid jarayonlarining shaffofligini va raqobat

muhitini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi (Ўзбекистон Республикаси Ҳукумат портали, 2025). Ular orqali xarid jarayonlari onlayn tarzda amalga oshirilib, barcha ma'lumotlar ochiq tarzda e'lon qilinmoqda va bu orqali jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va budget mablag'larini tejashga zamin yaratilmoqda. Tahlillarga ko'ra, raqamlashtirish jarayonlari raqobatsiz to'g'ridan-to'g'ri shartnomalarni kamaytirish va xalqaro standartlarga muvofiq tender jarayonlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa davlat xaridlar jarayonida korrupsiya va noxolislikning oldini olishda samarali mexanizm sifatida xizmat qiladi (Lex.uz., 2025).

Ma'lumki, O'zbekistonda davlat xaridlari tizimida barcha tenderlar elektron platforma orqali amalga oshirilishiga qaramay, "yopiq tenderlar" va ma'lum darajada "afillangan" kompaniyalar ustunlikka ega bo'lishi holatlari hanuz kuzatilmoqda. Masalan, 2025-yilning birinchi to'rt oyida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan umumiy qiymati 21 mlrd so'mlik 18 ta davlat xaridida qonunbuzilish holatlari aniqlangan va g'oliblarni aniqlash bayonnomalari bekor qilingan (Gazeta.uz., 2025). Bu kabi holatlar xaridlar jarayonida raqobat, xolislik va shaffoflik tamoyillariga zid ravishda qayd etiladi. Bundan tashqari, tadbirkorlar tomonidan xaridlar jarayonlari to'g'risida to'liq va o'z vaqtida ma'lumot ola olmaslik, elektron tizim orqali ishtirok etish kabi texnik va maqsadli muammolar mavjudligi natijasida tadbirkorlar xarid jarayonlarga teng ravishda kirisha olmasligi kuzatiladi (Gazeta.uz., 2025).

Elektron xaridlar ochiqqligini oshirish – davlat xaridlari tizimida shaffoflik va jamoatchilik ishtirokini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda "dxarid.uz" va boshqa elektron platformalar orqali tender ma'lumotlari e'lon qilinishi hamda ularni yuritish jarayonini raqamlashtirish orqali ma'lum bir ochiqlik ta'minlanayotgan bo'lsa-da, ma'lumotlarni to'liqligi, real vaqtda yangilash sohasida jiddiy muammolar mavjud. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, xarid jarayonlari bo'yicha barcha ma'lumotlarni birlashtiruvchi yagona ochiq ma'lumotlar tizimining mavjudligi davlat resurslarining samarali taqsimlanishi va jamoatchilik nazorati uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Bundan tashqari, xarid jarayonlari natijalarini taqqoslash, tenderlarda takroran g'olib bo'layotgan tashkilotlar faoliyatini kuzatish va "asimmetrik axborot" muammolarini bartaraf etishda ochiqlik muhim ahamiyatga ega.

Korrupsiyaga qarshi texnologiyalari, xususan blokcheyn, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan baholash algoritmlari, davlat xaridlari jarayonida inson omilini kamaytirish, noqonuniy kelishuvlarning oldini olishda innovatsion yechimlar sifatida ko'rilmogda. Blokcheyn texnologiyasi vositasida har bir tender bosqichining o'zgarmas, qayta tahrir qilib bo'lmaydigan raqamli izi saqlanib, ushbu ma'lumotlarga faqatgina vakolatli va jamoatchilik nazoratidagi foydalanuvchilar kirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari esa xarid jarayonidagi baholash me'yorlarini subyektiv talqindan xalos qilib, aniq va o'lchovli natijalarga asoslanadigan qaror qabul qilish jarayonini shakllantiradi. Transparency International va boshqa shu kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan korrupsiya xavfini pasaytirishda bunday texnologiyalarning samaradorligi yuqori baholangan.

Nazorat va jamoatchilik monitoringi davlat xaridlarida shaffoflikni ta'minlashda muhim omillardan biri bo'lib, davlat bilan jamiyat o'rtasida ishonchli munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekistonda ayrim hollarda faqat davlat nazoratiga tayanish natijasida davlat xarilari sohasida yashirin kelishuvlar va noto'g'ri qarorlar qabul qilinishi holatlari kuzatilgan. Shu bois, jamoatchilik nazoratini tashkil etish — fuqarolik jamiyati institutlari, jurnalistlar, faollar va tadqiqotchilar uchun xarid jarayonlaridagi ma'lumotlarga to'liq va erkin kirish imkoniyatini ta'minlash orqali amalga oshirilishi lozim. Jahon banking 2024-yilgi tahliliga ko'ra, jamoatchilik monitoringi ishtirokida o'tkazilgan xaridlarda 15-30%gacha budget tejalishi va shubhali bitimlar sonining keskin kamayishi qayd etilgan. Bu esa O'zbekiston davlat xaridlari sohasida keng joriy etilishi lozim bo'lgan muhim islohot yo'nalishlaridan biridir.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Tender jarayonlarini to'liq raqamlashtirish – barcha bosqichlarni elektron tizim orqali yuritish, inson omilini kamaytirish.
2. Ochiq ma'lumotlar bazasini yaratish – real vaqtda yangilanadigan, tahlilga qulay va ochiq ma'lumotlar platformasini yaratish.
3. Afillangan kompaniyalar va yopiq xaridlarni cheklash – qayta-qayta g'olib bo'luvchi ishtirokchilarni tahlil qilish, mustaqil audit mexanizmini joriy etish.
4. Blokcheyn va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish – barcha ma'lumotlarni o'zgarmas va nazorat qilinadigan shaklda saqlash.
5. Jamoatchilik monitoringini rag'batlantirish – fuqarolik jamiyati va OAV uchun platformada maxsus kuzatuv funksiyalari va vizual instrumentlar yaratish.

Bunday islohotlar natijasida davlat mablag'larining tejalishi, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi, korrupsiya holatlarining kamayishi va jamiyatda davlatga nisbatan ishonchning oshishiga erishish mumkin.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

- Darslik. (2024) Davlat xaridlari. "Lesson Press" MChJ nashriyoti – T.: -158 b.
Gazeta.uz. (2025). Blocked. [online] Available at:
<https://www.gazeta.uz/uz/2022/03/31/corruption-schemes>.
- Hamrayev M.U. (2021) Davlat byudjeti va uning samaradorligi. – Toshkent: Moliya, – 88 b.
- Hovhannisyan, D. and Hovhannisyan, T. (2025). Competition and Corruption: How the Level of Competition Affects Corrupt Practices in Public Procurement. Bulletin of Yerevan University G: Economics, [online] 16(1(45)), pp.59–69. doi:<https://doi.org/10.46991/BYSU.G/2025.16.1.059>.
- Jalolov D.X. (2022) Davlat xaridlari tizimida shaffoflikni oshirish: nazariy va amaliy yondashuvlar. – Toshkent: O'zFA nashriyoti, – 124 b.
- Lex.uz. (2025). 476-son 30.07.2025. Давлат харидларида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишни кенгайтириш ҳамда давлат харидлари электрон тизими операторлари фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. [online] Available at: <https://lex.uz/uz/docs/7655202>.
- Qonun (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, PQ-3953-son, 27.09.2018 y. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari bazasi, 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son.
- Qonun (2021) O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari bazasi, 23.04.2021-y., 03/21/684/0367-son.
- Gazeta.uz. (2025). Антикоррупция агентлиги 21 млрд. сўмлик ноқонуний давлат харидларини бекор қилди. [online] Available at:
<https://www.gazeta.uz/uz/2025/05/23/public-procurement>.
- Қонун (n.d.) "Давлат харидлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Available at:
https://www.uzcaa.uz/uploads/menu_main/0d0678314a06bd6d63a5d732f0259ce7.pdf.
- Ўзбекистон Республикаси Ҳукумат портали. (2025). Давлат харидлари. [online] Available at: https://gov.uz/uz/pages/davlat_xaridlari.